

4-mavzu. Qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lishi, tarixiy ildizlari va tarbiyaviy ahamiyati

Reja:

1. Qo'g'irchoq teatri tarixdan.
2. Qo'g'irchoq teatri vositasida bolalarda badiiy tarbiya.
3. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning axloqiy-estetik sifatlarini qo'g'irchoq teatri vositasida shakllantirish mazmuni.

Tayanch tushunchalar:

qo'g'irchoq teatri, tarixiy ildizlar, axloqiy-estetik, o'yinchoq, farzand tarbiyasi, texnologiya, qo'g'irchoq yasash usullari.



1. Qo'g'irchoq teatri tarixidan

Qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lish davri ma'lum emas. Xolbuki qo'g'irchoq teatri tarixi unchalik ham uzun emas, ammo shuni dadil aytish mumkinki, turli xudolarning tasvirlaydigan bud, sanamlar birinchi teatr qo'g'irchoqlari bo'lganlar, koxin va shamanlar esa - qo'g'irchoq teatrning birinchi aktyor va rejisyorlari bo'lganlar. Xozirgi davrga qadar ayrim mamlakatlarda, o'tgan ko'p asrlardagiday, an'anaviy qo'g'irchoq teatr tomosholarini ko'yadilar.

Bir necha o'n yillik avlodlar almashgan bo'lsada, Xindistonda ochiq osmon ostida soya tetrada "Ramayana"ni o'ynaydilar - yaxshi va yovuz xudolar to'g'risidagi spektakl. SHunday qilib, yuz asrlar avvalgiday, kattalar ushbu tomoshalarga keladilar va butun tun davomida tomosha qiladilar, chunki tomosha butun tun davom etadi, tomoshalarni esa faqat tunda namoyish etadilar.

Soya teatri Xindistondan tashqari yana Indoneziyada, SHretsiyada, Xitoyda, Turtsiyada xam mavjud, masalan vayang-kulit (Indoneziyada) qo`g`irchoqlardan foydalanadilar. Bu qo`g`irchoqlar yassi, tekis bo`lib charm-teridan tayyorlanadi. Qo`g`irchoqlar o`rtadagi yog`ochga qoritiladi, qo`g`irchoqning qo`llariga yoki boshlariga juda ingichka egiluvchan tayoqchalar qotiriladi. Soya teatrida katta mato ekran o`rnatiladi, ortidan yorug` lampa bilan yoritiladi, va tomoshani ushbu ekranga tushadigan soyalar orqali ko`rsatiladi. artist qo`g`irchoqni o`rtadagi yog`och bilan ushlaydi (yoki o`rtadagi yog`och bir joyga maxkamlanadi), ingichka yog`ochlalar orqali esa qo`g`irchoqning qo`llarini xarakatlantiradi. Eng asosiysi - qo`g`irchoqni ekranga maxkam bosib turmoq kerak.



Lekin asrlar qaridan faqatgina soya teatri kirib kelmagan. **Xitoy, Koreya va Yaponiyada bir necha mingyilliklar davomida ko`cha tomoshalari bo`lib keladi, undagi asosiy qaxramonlar esa - sher, ajdarxo va ertak maxluqlari.** Xayratlanarli joyi shundagi ushbu mamlakatlarda, olimlarning isbot qilishicha, nafaqat ajdarlar balki sherlar ham xech qachon bo`lmagan ekan. SHunday bo`lsada xech bir milliy bayramlar va ko`cha tomoshalari ushbu personajlar ishtirokisiz bo`lmaydi. Odatda sher yoki ajdarni ikkitadan kam bo`magan odamlar tasvirlaydilar. Biri boshini ko`taradi, ikkinchisi esa tana va boshqa qismlarini ko`rsatadi. Ko`pincha boshni ko`targan odam uchinchi odamni ustida o`tiradi yoki uni maxsus zambilda ko`tarishgan, negaki maxluqning boshi balandda bo`lishi uchun. Barcha artistlar maxluqning badanini tasvirlaydigan maxsus yopinchiq bilan yopiladi. Uni lenta, sholi somoni, o`tlar bilan bezaydilar. Tomosha so`zsiz, baland milliy asboblari musiqasi ostida bo`lib o`tadi.

Indoneziyada vayang-kulitdan tashqari, vayang-golek qo`g`irchoqlari xam bor. Bu endi yassi, tekis qo`g`irchoq emas, balki oddiy xajmli qo`g`irchoq. Vayang-golekda ham xar tarafga egqilishi uchun o`rtasida mustaxkam yogochi bor, va qo`g`irchoqni xarakatlantirish uchun ingichka yog`ochchalari bor. XX asrning boshlarida avstriyalik P.Teshner sharofati bilan uzoq Osiyodan Yevropaga ko`chib o`tdilar va ular tostli (yog`ochli) qo`g`irchoqlar deb nomlandi, o`rtadagi yog`och esa - gapit deb ataldi.

Savol kelib chiqadi, trostli qo`g`irchoqlar kelgunga qadar Yevropada qo`g`irchoq teatr bo`lmaganmi? Xa desa ham, yo`q desa ham bo`ladi. Yo`q deyish, xech qaysi Yevropa mamlakatlarida qo`g`irchoq teatri sifatida ma`lum bir binosi yo`q edi. Xa deyish, xar bir Yevropa mamlakatlarida qo`g`irchoq teatrlari tomoshalari bo`lgan va qo`g`irchoqboz-aktyorlar bo`lgan. Faqat XX asrgacha ular qashshoqlarga tenglashtirilgan, shuning uchun tartib qo`riqchilari ularni dam olish joylaridan, markaziy maydonlardan va istiroxat bog`laridan xaydaganlar. Masalan, Moskvaning Sokolniki bog`ida qo`g`irchoq tomoshalar faqatgana yakshanba kunlari ruxsat etilgan. Xolbuki barcha mamlakatlarda qo`g`irchoqbozlar oddiy xalq (ishchilar, dexqonlar, yoshlar) orasida juda svimli edi. Ammo, naxotki aslzoda va ziyolilar qo`g`irchoq teatrini yaxshi ko`rishmaganmi? Tarix ko`rsatishicha, yaxshi ko`rishgan. Faqatgina ularning jamiyatdagi statusi ularga bu xaqda iqror bo`lishlariga yo`l qo`ymagan, negaki ular noziktab va madaniyatli bo`la turib oddiy omi xalq bilan yaxshi o`zlarini teng ko`rishmagan. Ziyoli oqsuyalar jonli qo`g`irchoq teatri o`rniga mexanik teatrlarni qo`yishdi. XVIII asr oxirlariga kelib musiqali tamakidonlar, xarakatlanuvchi figurali soatlar, uy sharmankalari, teatralno-musiqali qutilar urfga kirdi. shu bilan birgalida chiroyli qimmat qutidan nafaqat musiqa eshitilar edi, balki unda figuralar xarakatlanardi, qandaydir xarakatlar ro`y berar edi. Nimasi bilan uy qo`g`irchoq teatri emas?

Ziyoli oqsuyak janoblar salonlarda mexanik tomoshalardan zavqlangan bir paytda, oddiy axoli o`zlarining xovlilarida, chekka-chekka maydonlarda, bozor va yarmarkalarda jonli qo`g`irchoq teatrini tomosha qilib quvonganlar.

Turli xir til va an`analarga qaramasdan, Yevropaning ko`p mamlakatlarining qo`g`irchoqboz-aktyorlari va qo`g`irchoqlarning o`zlarida ham ko`p o`xshashliklar ma`lum bo`ldi. barcha qo`g`irchoqbozlarda shirma bo`lgan, tomosha vaqtida uni orqasida berkinishgan. qo`g`irchoqlar qo`lqopli bo`lgan, yoki, boshqacha aytganda qo`l qo`g`irchoqlari. Qo`g`irchoq qo`lqopga o`xshab aktyorning qo`liga kiyilgan: boshi ko`rsatkich barmoqga, qo`llari esa bosh va o`rta barmoqlarga kiyilgan. Aktyorning qo`li qo`g`irchoqa aylangan, Rossiyada uni Pyotr Ivanovich Uksusov, yoki oddiygina Petrushka deb nomlangan, Angliyada - Panch, Germaniyada - Kasperle, Frantsiyada - Polishinel, Italiyada - Pulchinella, Gretsiyada - Karaxezas, Turtsiyada - Karagez va xokazo. Xar bir mamlakatda o`zining sevimli qaxramoni bo`lgan, va har biri bir birlariga aka-ukaday o`xshash bo`lgan. Rosti ularni chiroyli deb bo`lmas edi, to`g`rirog`i aksincha edi. Hammasi bukr - kimdadir katta, kimdadik kichkina, barchasida uzun burun, boshida qalpoq - yo masxaraboz kiyimining elementi sifatida, yo tentaklik belgisi sifatida, "qalpoqlangan" odam kabi. Ammo barchasi etarlicha yoqimtoy va sirli tabassumli. ularning barchasi tomosha paytida qo`llarini qattaq silkitishadi, ba`zida shunchaki, ammo ko`pincha to`qmoqni olishadi va urishishadi. Ular kimlarni uradilar? Xammani bir chekadan, asosan pilitsiyachilarni, semiz amaldorlarni, xasis-boylarni, Petrushka esa shifokor va o`zining qallig`ini ham urgan. Petr Ivanovich Uksusov gapirmas edi, chiyillagan. bunda qo`g`irchoqboz og`zida maxsus chiyildoq bo`lgan va u orqali gaplashgan. Tomoshalarning tematikasi - ziyolilar ko`rmasligi uchun yana bitta sabab bo`lgan.



Chetroqda venger qo`g`irchoqbozlari turgan. Ularning tomoshalari Vengriyaning turklardan ozod qilinishi sharafiga bag`ishlangan va undagi

vengriyalik xalqning qaxramonliklari hamda dushmanlarning qo`rqoqligi to`g`risida gapirilgan. Shu davrga qadar qo`lqop qo`g`irchoqlar eng sevimli va keng tarqalgan qo`g`irchoqlar bo`lgan.



Angliyadan marionetkalar - ip bilan boshqariladigan qo`g`irchoqlar kirib kelgan va keng ommalashgan. Ingichqa pishiq iplarning bir uchi qo`g`irchoqning bosh, elka, tizza, qo`l, panja, oyoq, dumlariga bog`langan, ikkinchi uchi esa, chigal bo`lib ketmasligi uchun, taxta yog`ochga bog`langan. Qo`g`irchoqboz har bir ip qaerdaligini juda yaxshi bilishi shart va ushbu iplar orqali qo`g`irchoqni boshqara bilishi kerak. Aktyorlar ko`rinmasligi uchun ular saxnaning orqa devori ortida maxsus balandlikda turishadi, yuzlariga esa "paduga" deb nomlanadi maxsus matodan ekran tutiladi.



Qo`g`irchoq teatri bir joyda turmasdan faol rivojlaniyoqda. XX asrning ikkinchi yarmida barmoq qo`g`irchoqlar o`ylab topildi: bitta barmoq - bitta qo`g`irchoq. Qo`g`irchoqning boshi istalgan barmoqa kiyiladi, barmoq esa qo`g`irchoqning tanasi bo`ladi va qo`g`irchoq kiyimi bilan to`siladi. Og`zini ochadigan va chiyillaydigan qo`g`irchoqlar o`ylab topilgan. Yana katta qo`l qo`g`irchoqlar borki ularning tanasi qo`g`irchoqbozning tanasiga aylanadi. Bundy qo`g`irchoqlar shunday tayyorlanganki qo`li qo`lqop singari qo`g`irchoqbozning

qzliga kiyiladi, oyog`i esa qo`g`irchoqbozning oyog`iga qadaladi. Qo`g`irchoqboz qayoqa borsa, qo`g`irchoq ham o`sha erga boradi. Bunday o`g`irchoqlarning xattixarakatlari ham boy bo`ladi.



Yana turg`un (statik) qo`g`irchoqlar ham bo`ladi, ular uyda teatr qo`yishga qulay. Ular xarakatlanmaganligi uchun turg`un (statik) deb ataladi. Istalgan stol saxna vazifasini bajarishi mumkin, unga dekoratsiya qo`yiladi. Dekoratsiya sifatida unchalik katta bo`lmagan qo`g`irchoqlar qo`yiladi, qo`g`irchoqlarni qog`ozdan (konus qo`yig`choqlar) yoki plastilindan yasasa bo`ladi.



2. Qo`g`irchoq teatri vositasida bolalarda badiiy tarbiya.

M.O.Raxno fikricha bolalar qordan qal`alar, qumdan qasrlar, kubiklardan uylar yasashni yaxshi ko`radilar, kosmik raketalarni o`ynashni, bo`yoq, qalam, mellarda rasmlarni chizishni yaxshi ko`radilar. Yana bolalar ertaklarni yaxshi ko`radilar. Kattalar nafaqat bolalarni qo`g`irchoq teatri orqali vaqtini chog`laydi, balki ularni qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Bolalar atrof olamni tug`qilishi bilanoq idrok eta boshlaydi. Ularni ko`rgan narsalariga to`g`ri baho berishi uchun, yaxshi yoki yomonligini aniqlash uchun, asl go`zallikni yorqin razillik va pastkashlikni farqlash uchun ularni o`rgatish kerak, tug`ulgan vaqtidanoq. Bolaning didini shakllantirish oidalan boshlanadi. Bola bilan qo`g`irchoq teatr o`ynay turib ko`p narsaga o`rgatish, tushuntirish mumkin, nafaqat so`zlar bilan balki yorqin misollar bilan.

Spektakl ustida ishlash, qo`g`irchoq va dekoratsiyalar tayyorlash nafaqat qiziqarli, balki bilimlarni ham oshiradi. ushbu jarayonda bolada qunt bilan ishlash, tirishqoqlik, sabr, tartib, ozodalik, tasavvurni rivojlanishi, diqat, xotira, ritm xissi, boshlagan ishini oxiriga etkazishga intqilishi tarbiyalanadi. Spektaklga tayyorgarlik vaqtida bolalar yoshiga qarab qaychi va kleydan foydalanishga, plastilindan yasashga, tikish, to`qish va xokazolarni o`rganib olishi mumkin.

Albatta, birinchi davrda, bolaning yoshidan va ko`nikmalaridan qat`iy nazar, qo`g`irchoq va dekoratsiyalarni tayyorlashdagi asosiy ishni kattalar qilishiga to`g`ri keladi. Sekin asta bolalar ishga kirishib ketadilar, bolalarda nafaqat spektakl ko`rishga balki unga tayyorgarlik va bezatishga qiziqish paydo bo`ladi. Ular dekoratsilar utida ishlaydi, ignaga ip o`tkazishni, qo`llarida spitsa va ilmoq ushlashni o`rganadilar. Ilmoq bilan ishlash, qo`g`irchoq qismlarini kleylash, plastilindan qo`g`irchoqlar yasash **bolada mayda motorikasini takomillashtiradi, bu esa o`z navbatida bosh miyaning rivojlanishiga olib keladi va yangilikni tez o`zlashtirish qobiliyatini rivojdantiradi.**



Shuni yodda saqlash kerakki, bir xildagi ishni bajarish bolalarni tez toliqtiradi. Spektaklga tayyorgarlik vaqtida esa bir xillik bo`lmaydi. Istalgan vaqtda tanafus qilish mumkin (masalar qo`g`irchoq tayyorlashda) va bolalarga e`lonni chizishni, dekoratsiyani bo`yashni yoki tekstni birgalikda yodlashni taklif qilish mumkin.



Dekoratsiyalarni bo`yash davrida bolalarga iliq va sovuq tuslarni nimaligini va ularni bir-birlari moslashtirishni tushuntirish mumkin. Bolalar bilan spektakldagi ranglarning ketma-ketligini (qizil, to`g` sariq, sariq, yashil, havorang, ko`k, siyohrang) kulgili va barchaga yoshligidan tanish bo`lgan tezaytishlar yordamida yodlab olish mumkin.

Qo`g`irchoqlarni tayyorlash jarayoni ziyraklikni, xayvonlarni xarakterli chizgilari va odamlarning obrazlarini ko`ra olishni talab qiladi. Ushbu jarayonda ko`z xotirasi, tasavvur, badiiy-ijodiy fikrlash, umulashtirish qobiliyatlari rivojlanadi. Qo`g`irchoq qat`iy proportsiyalarga amal qilgan xolda, mayda detallargacha bajarqilishi mumkin, shunchaki odam yoki xayvonning xarakter chizgilarini ifoda qiluvchi, shu bilan birga qandaydir shartliklarni saqlab qolgan

holda oddiy qo`g`irchoq ham bo`lishi mumkin. Xarakterli detallari bo`rtirib ishlangan qo`g`irchoqning umumlashgan shakli nafaqat bilim oluvchi obrazni tasvirlaydi, balki bolalarda abstrakt fikrlashni rivojlantiradi va kerakmas narsalarni olib tashlab asosiysini ko`rish iste`dodi shakllanadi.

Albatta, qo`g`irchoq teatrini tashkil etishda bola bilan dekoratsiya tayyorlash va tugallanmagan ishlarni qoldirish uchun joy ajratish kerak, qo`hirchoq, afishalar, kerakli asbob-uskunalar, matolar, rekvizitlarni saqlash uchun maxsus quti tayyorlash kerak. boshida tarbiyachi va ota-onalar bolalarga yordam berishadi va spektaklga tayyorgarlik ko`rish va tugagandan keyin ozoda va tartibga rioya qilishni o`rgatadilar, keyinchalik esa bolani nazorat qiladilar, bola qinaladigan vazifalarda yordam beradilar xolos, shirmalarni yoki og`ir dekoratsiyalarni yig`ishtirishda. shu asnoda bolada sekin-asta ozodalik va mas`uliyat shakllanadi.

Barmoq qo`g`irchoqlar bilan o`ynash (nafaqat spektakllarda, balki istalgan vaqda ham) plastilin yasash kabi bolaning maydi motorikasini rivojlantiradi. Barmoqlarning yaxshi motorikasi esa idrok, analiz va xotiraga javob beruvchi bosh miyaning bo`limlarini rivojlantiradi.

Qo`lda qo`g`irchoqlarni ushlaganda va dekoratsiyalar bilan ishlaganda bolalar vizual va sensor ravishda katta va kichik, keng va tor, baland va past, yumaloq, o`tkir nimaligini bilib oladilar. Dekoratsiyalarni o`rnatishda bolalarga tushunarli shaklda markaz, o`ngroq, chaproq, balandroq, pastroq, yaqinroq, uzoqroq nimaligini tushuntirish mumkin.

Uydagi qo`g`irchoq teatri bolaning nutqqi, so`z boyligini kengayishiga, rollarni yodlash esa - xotirani rivojlanishiga yordam beradi. Spektaklga tayyorgarlik qo`rishda, dekoratsiya va qo`g`irchoqlarni yasash vaqtida spektaklga tegishli hamda bolalarning dunyoqarashini kengaytiradigan, suxbatlar o`tkaz qilishi kerak.

Stsenariyda duch keladigan yangi so`zlarni bolaga tanish, engilroq so`zlarga almashtirishga urunmang, yaxshisi unga yangi so`zning ma`nosini tushuntiring, chunki spektaklda bir necha bor takrorlanadigan bu so`z bolaning so`z boyligiga qo`shiladi. Ish bermaydigan kattaroq bolalarni esa tomoshabinlarga, estalik uchun,

bosh qaxramonlarning aplikatsiya yoki origami usulida tayyorlangan shakllarini tarqatishlari mumkin.

Odatda bolalarning o`zlariga bilinmagan xolda ertak, spektakllarga qiziqishi dekoratsiya va o`yinchoq, yangi ertaklarni o`ylab topish, mustaqil yaratish istagiga aylanadi.

Shunday qilib, teatrlashtirishgan o`yinlar bolalarda juda sevimlidir va ularning badiiy rivojlanishiga imkon beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bajonidil o`yinga qo`shiladilar: ularning savollariga javob beradilar, iltimoslarini bajaradilar, maslaga beradilar, u yoki bu obrazga kirishadilar. Personajlar kulganda bolalar xam kuladilar, xafa bo`lganda birga xafa bo`ladilar, xaf kelganda ularni ogohlantiradilar, sevimli qaxramaonlarini omadsizliklariga yig`laydilar, xar doim ularga yordamga shoshadilar.

Teatrlashtirilgan o`yinlardagi obrazlar, ranglar va tovushlar orqali bolalar atrof olam bilan tanishadilar. Bola shaxsini shakllantirishda taetrlashtirilgan o`yinlar pedagogik vosita sifatida har tomonlama katta ahamiyatga ega, chunki bola o`yin vaqtida o`zini bemalol va erkin xis qiladi.

Kulgu va quvonch bolalikka xos va undan ajralmasdir. Bolalarga o`ynash yoqadi, ayniqsa tengdoshlari bilan. Mustaqil o`ynayotgan bolajonlarni kuzatib ko`ring. Zo`r berib, jiddiy, yuzda tabassum siz va kulgu eshitilmaydi. Bunga hayron bo`lmasa ham bo`ladi. Axir bolalar o`ynaganda kattalarga taqlid qiladilar. Ular bizlarni qanday qo`radilar? Doimo tashvishli, qaergadir shoshgan, ish bilan band - mas`uliyatli, muhim, odamlarga kerakli.

3. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning axloqiy-estetik sifatlarini qo`g`irchoq teatri vositasida shakllantirish mazmuni

“Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo`yiladigan davlat talablari”da bolalarni yuksak “ma'naviy”, “axloqiy”, “madaniy”, “estetik” tushunchalarni mazmun va mohiyatini ularning qalbiga, ongiga singdirish davlat siyosatidagi muhim dolzarb muammolardan biridir. Shu jihatdan olib qaralganda

O'zbekiston Respublikasida kechayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-ma'naviy islohotlar, fan-texnika va ishlab chiqarish keskin rivojlanib borayotganligi - jamiyat talablariga javob bera oluvchi shaxsni tarbiyalash masalasini kun tartibiga ko'ndalang qo'yimoda.

Darhaqiqat, bugun kelajak poydevori bo'lgan, har jihatdan mas'uliyatli, jamiyat taraqqiyoti uchun shaxsan tashabbus ko'rsata oladigan yoshlarni maqsad sari to'g'ri yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etimoda. Bu borada maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarining yoshi va o'ziga xos psixologik, fiziologik hamda jismoniy imkoniyatlari, qiziqishi, iqtidori hamda ehtiyojlari hisobga olinadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'limiy mashg'ulotlar, ertak tomoshalari, qo'g'irchoq o'yinlar tarbiyalanuvchilarida qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Tarbiyachilarning qo'g'irchoq yasash, qo'g'irchoq teatrini tashkil qilish texnologiyalari, qo'g'irchoq turlarining tasviri tushurilgan bukletlar tavsiya qilinishi jarayonning samarali kechishini ta'minlabgina qolmay, belgilangan vaqtdan unumli foydalanish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy-estetik sifatlarini shakllantirishga imkon yaratuvchi quyidagi ertaklarni tanlashni ma'qul topdik:

1. Kichik yoshdagi (3-4) bolalar uchun: "Fil bilan xo'roz" (xalq ertagi); "Bo'ri bilan echki" (xalq ertagi); "Nasibaning olmasi" (Sh.Sa'dulla).
2. O'rta yoshdagi (4-5) bolalar uchun: "Quyondjon va laylakvoy" (xalq ertagi); "Aqlli qarg'a" (xalq ertagi).
3. Katta yoshdagi (5-6) bolalar uchun: "Qarg'aboy" (xalq ertagi); "Ur to'moq" (xalq ertagi)
4. Maktabga tayyorlov yoshidagi (6-7) yoshdagi bolalar uchun: "Egri va To'g'ri" (xalq ertagi); "Yolg'on do'st" (A.Avloniy).



Farzand tarbiyasida o'yinchoqning ahamiyati

O'yinchoq - bola hayotining dastlabki davrlaridan boshlab ularga yo'ldosh quvonch manbaidir. O'yinchoq - bolaning o'ynashi uchun mo'ljallangan va boshqa

maqsadlardan foydalanmaydigan buyum bo'lib hisoblanadi. O'yinchoqda buyumlarning tipik hususiyatlari umumiy tarzda aks etadi.

Pedagog A.S.Makarenko, «O'yinchoq o'yinning «material asosi», o'yinchoq o'yinni yaratishda ishtirok etadi, bolaning o'ziga xos sherigi sifatida namoyon bo'ladi, uning shaxsiga ta'sir ko'rsatadi», - deb ta'kidlaydi. Rus pedagoglari - o'yinchoq bolalarga atrofda mavjud voqe'likni o'rganishga yordam beradigan, ranglar, buyumlar ko'lamini ularning materiallarini farqlash malakasini rivojlantiruvchi vosita, deb ta'kidlab, bola dunyoqarashini kengaytirishdagi ahamiyatini ko'rsatib berdilar.

Xalq pedagogikasida o'yinchoqlarning butun bir tizimini ishlab chiqilgan bo'lib, bular bolaning sensor qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

O'yinchoqlar – bolalarning nutqiy faolligini uyg'otadi, lug'at boyligini oshiradi, ularda tahlil qilish yaxlit holatga keltirish, umumlashtirish, taqqoslash, tavsiflash diqatni jamlash va barqarorligini rivojlanishida muhim bir vositadir.

O'yinchoq bolalarda – ma'naviy-axloqiy tuyg'ularni (mehribonlik, avaylash, e'tiborlik) shakllantiradi, atrof muhitga ijobiy munosabatni uyg'otadi.

O'yinchoqlar va o'yinlar xalq pedagogikasining eng samarali vositasi bo'lib, tarbiyani ular orqali singdirish qulay yo'llardan biri sanalgan.

Shu sabab ota-bobolarimiz, momolarimiz o'yinchoqlarning ahamiyatiga alohida diqat qaratishgan. Ajdodlarimiz milliy xususiyatlarni aks ettiruvchi o'yinchoqlarga turli matolar vositasida bezak berishgan. Bunday o'yinchoqlar millatga xos urf-odat, qadriyatlarni aks ettirgan.

Hozirda esa savdo rastalarida milliy o'yinchoqlar bilan bir qatorda g'arb davlatlari andazasidagi zamonaviy o'yinchoqlarni ham topishimiz mumkin.

Bugungi kunning ota-onalari farzandlari uchun xarid qiladigan o'yinchoqning qayerda tayyorlanganligiga, shakli, qaysi hayvon yoki buyumga bog'liqligiga, qanday o'ynalishiga va bola ruhiyatiga ko'rsatadigan ta'siriga katta e'tibor berishlari lozim. Bir so'z bilan aytganda, bola uchun qanday o'yinchoq tanlash kerakligini yaxshi bilishlari zarur. Chunki o'yinchoqlar bolaning ruhiy jihatdan me'yoriy rivojlanishi uchun zarur vosita vazifasini o'taydi.

Psixologlar o'yinning maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatida yetakchi jarayon ekanligini ta'kidlab, insonga o'qishda, odamlar bilan muloqot-munosabatda, ijodda zarur bo'ladigan barcha sifatlarning kurtaklari o'yinda shakllanishini qayd etadilar. O'yin faoliyatida bolaning tasavvuri, xayoli rivojlanadi hamda u diqqatini bir joyga to'plashga o'rganadi. Aynan o'yin faoliyatida kichkintoylar o'zlarining harakatlarini boshqarishni, o'z xohish-istaklarini nazorat qilishni, xatti-harakatlarini maqsadga yo'naltirishni o'rganadilar.

O'yinchoqlar esa uning bilish jarayonlarini shakllantirish va ruhiy rivojlanishi uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. O'yinchoq bola uchun shunchaki ko'ngilxushlik vositasi, deb hisoblaganlar adashadilar. O'yinchoq bola ruhiy rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omildir. Aniqrog'i, farzandingizning ruhiy rivojlanishiga uning o'yinchoq bilan bajaradigan harakatlari, muloqoti kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bolalar mehnat va turmushda qo'llanuvchi buyumlarning nusxasi bo'lgan o'yinchoqlarni o'ynash orqali turli narsalarning nima masadda ishlatqilishini tushunib, asta-sekin haiqiy buyumlar olamiga psixologik jihatdan kirib boradi. Farzandingiz turli xil qo'g'irchoqlar, hayvonchalar ko'rinishidagi o'yinchoqlar bilan o'ynaganda, boshqalarga g'amxo'rlik qilish, hamdard bo'lishni o'rganadi, uning emotsional-hissiy muloot ko'nikmalari rivojlanadi. O'yinchoqning bola ruhiyatiga ta'sirini inobatga olsak, o'yinchoq tanlashda ota-onadan alohida hushyorlik talab qilinadi. Shiqildoq o'yinchoqlar chaqaloning psixofiziologik rivojlanishiga ta'sir etib, bunda kichkintoyning ovoz eshitish sezgisi oshadi. Ammo o'yinchoqning ovozi juda baland bo'lmasligi zarur. Bu go'dakni cho'chitib, qo'rqitib yuborishi mumkin. Chaqalolar besh oylikdan oshganidan so'ng narsalarni mustail ushlab, his qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Kichkintoy sakkiz oylik bo'lganida taxtadan yasalgan kubiklar berilsa, bu uning sog'ligi uchun zarar yetkazmaydi. Chunki ular tabiiy toza xomashyodan yasaladi.

So'nggi paytlarda bolalarni maktabga ertaroq tayyorlashga qiziqish ortib, har xil didaktik, ya'ni muayyan aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'yinchoqlar ancha xaridorgir bo'lib oldi. Bunday o'yinchoqlarni o'ynashning foydali tomonlarini inkor etib bo'lmaydi, ammo bolalikdan tom ma'nodagi o'yin

yo‘qolib, uning o‘rnini o‘quv mashg‘ulotlarining topshiriqlariga o‘xshash narsalar egallashiga yo‘l qo‘yish mumkin emas. Ota-onalar har xil rivojlantiruvchi didaktik o‘yinchoqlarni qidirishga ko‘p vaqt sarflamay, farzandiga odatdagi oddiy o‘yinchoqlarni olib bergani ma‘qul. Ota-ona, shuningdek, bolada harakat ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi o‘yinchoqlar haqida ham unutmazligi kerak. Zero, to‘g‘ri tanlangan o‘yinchoq bolaning shaxs sifatidagi rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘yinchoq tanlashda – bolaning yosh va individual xususiyatlarini, qiziqishlari, istaklari hisobga olinadi. Maqsadga qaratilgan bunday yondoshuv - o‘yinchoq tanlashga bo‘lgan talabni yanada oshiradi. Asosan: pedagogik, gigiyenik, badiiy talab orqali o‘yinchoq tanlanadi.



Pedagogik talab: o‘yinchoq obrazi va mazmunining bola tarbiyasiga muvofiqligi; jamiyatimiz g‘oyasi nuqtai nazariga mos kelishi, g‘oyaviy jihatdan qimmatli bo‘lishi – pedagogik talabning muhim belgisi hisoblanadi. O‘yinchoq - bolada

olijanob tuyg‘ularni uyg‘otishi, boshqa millat bolalari bilan do‘stona munosabatlarni tarbiyalashda, voqelikka nisbatan olijanob tuyg‘ular uyg‘otishi, ijobiy axloqiy tajriba to‘plashga yordam berishi lozim. O‘yinchoq bolaning faollikka bo‘lgan intqilishini qonitirishi va uni uyg‘otishi kerak. Obrazli o‘yinchoq - real haqiqatni ifoda etuvchi, buyum va uning xususiyatlari va hayotdagi ahamiyatini aks ettiradi.

O‘yinchoqning dinamiklik xususiyati undan ko‘p marotaba rejali tarzda foydalanish imkonini yaratadi. Bu xususiyatidan kelib chiqib, o‘yinchoqa uyidagi talablar qo‘yiladi:

Gigiyenik talablar: o‘yinchoq qurilishi qanday materialdan va rangdan tayyorlanganligi, bolaning hayotiga hech qanday xavf solmasligi, yaxshi tozalay olish mumkinligi asosiy talablardan hisoblanadi.

Badiiy talablar: shakl, bo‘yoq va bezaklar bilan har tomonlama uyg‘unlashuv, bir-birini rang va shakl jihatdan to‘ldirib, ta’kidlab, o‘yinchoqning badiiy ifodaliligini oshiradi. o‘yinchoqlarning tuzqilishi va bezalishi bolalarning turli yosh bosqichlarda idrok etish xususiyatlariga to‘la mos kelmog‘i lozim.

To‘g‘ri tanlangan o‘yinchoq - bolaning jismoniy, axloqiy, aqliy va badiiy-estetik tarbiyasi rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bolani aqliy jihatdan tarbiyalashda didaktik o‘yinchoqlarning butun bir tizimi katta ahamiyat kasb etib, sensor va nutq rivojiga, fikrlash jarayonlari va diqqatini tarbiyalaydi, buyum va uning xususiyatlariga, qurilishiga bo‘lgan qiziqish shakllanadi, bilim-tushunchalari boyib boradi.

Bolani axloqiy tarbiyalashda - o‘yinchoq bolani quvontiradi, atrofdagilarga nisbatan ijobiy munosabat hosil qiladi, birgalikda o‘ynash tuyg‘usini uyg‘otadi va ijobiy his-tuyg‘ularni tarkib toptiradi. Axloqiy his-tuyg‘ularni shakllantirishda qo‘g‘irchoq muhim ahamiyatga ega. qo‘g‘irchoq - o‘zining keng ma’noli xislatlari bilan bola hayotiga kirib keladi. Milliy qo‘g‘irchoq - bolalarni boshqa millatga mansub bo‘lgan tengdoshlariga bo‘lgan ijobiy munosabatni tarbiyalash manbalaridan hisoblanadi. San’atni birinchi yorqin obrazli va eng tushunarli buyumi bo‘lgan o‘yinchoq estetik hislar va kechinmalar uyg‘otadi, estetik tarbiyani to‘plashga yordam beradi va badiiy didni shakllantiradi. Shu o‘rinda bolalarga yaqin va tushunarli bo‘lgan xalq o‘yinchoqlarining ahamiyatini alohida ta’kidlash lozim.

Bolaning jismoniy tarbiyasida o‘yinchoq bolalarni turli rang-barang harakatlarga undaydi va bolaning faol harakatga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi. Tezkor javob reaksiyasini, harakatlarning aniqligi va muvofiqlashtirishini rivojlantiradi.

Ilk yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan ko‘p o‘yinchoqlar (shalqdoqlar, rezina koptokchalar, shaklchalar va boshqalar) bolada ko‘rish va eshitish diqqatini rivojlantiradi, ushlar harakatlari va buyumli harakatlarni o‘stirishga yordam beradi.

O‘yinchoq - ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega.

O`yinchoqlarning turlari va ko`rinishlari bo`yicha quyidagi turkumlarga ajratiladi:

- syujetli-obrazli;
- texnika o`yinchoqlari;
- qurish – yasash, qurilish materiallari o`yinchoqlari;
- didaktik o`yinchoq va o`yinlar;
- sport va harakatli o`yinlar uchun mo`ljallangan o`yinchoqlar;
- yig`ma – bo`linma o`yinchoqlar;
- teatr va dekorativ o`yinchoqlar; (soya va qo`g`irchoq teatrlarining personajlari, drammalashtirilgan o`yinlar uchun kiyimlar, archa o`yinchoqlari);
- o`yinchoq - ermaklar;
- ohang chiqaruvchi musiqaviy o`yinchoqlar;
- qo`lbola o`yinchoqlar va o`yin materiallari, turli-tuman o`yin jihozlari.

Syujetli-obrazli o`yinlar - syujetli-rolli o`yin uchun foydalaniladi. U bolalarda ijobiy xarakter qirralarini, muloyimlik, g`amxo`rlik, yordam berishga ehtiyoj, shuningdek kattalar mehnatiga hurmat va tengdoshlari bilan o`ynay olish malakalarini tarbiyalaydi.

Texnika o`yinchoqlari – bolalarda texnikaga va texnika asboblari bo`lgan qiziqishni va ularni o`z o`yinlarida qo`llay olish imkonini yaratadi. Bolalarni texnikaga bevosita aloqasi bor buyumning (mashinalar, mexanizmlar, transport turlari, aloqa vositalari) tashqi ko`rinishi, obrazni va unga xos harakatlarni tanishtiruvchi texnik o`yinchoqlar yaqin turadi.

Qurish-yasash o`yinchoqg`i sodda, boshqarish va foydalanish jihatdan qulay va osondir. Bu o`yinda buyumning asosiy vazifalariga taqlid qilish imkonini yaratishi lozim. (avtomobilda g`ildiraklar harakatlanishi, eshik ochilishi). qurilish materiallari bilan o`ynaladigan o`yinlarning asosiy 2 tipi mavjud:

a) kublar, prizmalar, konuslar, piramida, selindrlar, plastinkalar, geometrik shakllar to`plami.

b) turli blok - devor, froniton, kolonka, tom, ark va boshqa arxitektura va qurilish materiallaridir. Mayda (stol o`yinlari uchun) va yirik (polda va

maydonchada) o'ynashga mo'ljallangan. Bu qurilish materiallarining rangi rang-barang bo'lishi mumkin.

Didaktik o'yinchoqlarning asosini xalq o'yinchoqlari tashkil qiladi. Ular o'yin vazifasini bajarishda bola o'z-o'zini nazorat qilishni ta'minlaydi. Xilma xil mozaykalar sensor qobiliyatlarini rivojlantiruvchi didaktik o'yinchoqlarga mansubdir. Ulardagi o'yin vazifasi naqshlar, rasmlarni tanlash va joylashtirishdan iborat.

Harakatli o'yinlarga mo'ljallangan o'yinchoqlar; suv, qum bilan o'ynaladigan o'yinchoqlar, koptoklar, arg'amchilar, chamberaklar, kegli va boshqalar. Ularning asosiy vazifasi bolalarning jismoniy jihatdan tarbiyalashni ta'minlaydi.

Musiqali va teatrlashtirilgan o'yinchoqlar bolalarning musiqaviy ohang va ritmni eshita olish qobiliyatini o'stirishga yordam beradi. Katta yoshdagi bolalar ertaklarni sahnalashtiradilar.

O'yinchoq - ovutmacholar - harakatchan, ko'pincha ovoz chiqaradigan bo'ladi. Ular bolalarni o'zlarining ajoyib xatti-harakatlari bilan quvontiradilar, syujetlari esa vaqtichog'lik bag'ishlaydi.

Qo'lbola o'yinchoqlarni kattalar bolalar bilan birgalikda tayyorlaydilar va turli ertak, hikoyalarni sahnalashtiriladi. O'yinchoqlarni tayyorlanadigan materiali bo'yicha tayyorlash: hunarmandchilik, qo'lbola, fabrika usullari bor.

Tanili pedagog A.S.Makarenko o'yinchoqlarning 3 turini ajratib ko'rsatgan edi: tayyor o'yinchoqlar, yarim tayyor o'yinchoqlar va o'yin materiallari. Birinchi turi-bolalarni buyumlar va narsalarning rang-barangligi bilan tanishtiradi, tasavvurini o'stiradi. Ikkinchi turi-boladan faol faoliyatni talab qiladi, mantiqan va aqlan o'sishga yordam beradi. Uchinchi turi-bevosita bolaning ijodiy faoliyatini ta'minlaydi.

- Tug'ilgandan 2,5 oylik bolalar uchun mo'ljallangan o'yinchoqlar.

- Bu yoshdagi bolalarning asab-ruhiy rivojlanishlariga yordam beradigan yorqin rangdagi turli xildagi o'yinchoqdan foydalaniladi. Bu o'yinchoqlar bolalarning yotoqxonasi va krovatlariga ilib qo'yiladi. Bola bu o'yinchoqlarga

qaraydi, ularni ko'zdan kechiradi, tanish tovush uni o'ziga darhol jalb qiladi, tinchitadi va quvontiradi.

- 6-9 oylik bolalarga yorqin rangdagi ovoz chiqaruvchi shiqildoqlar, xalqacha, doirachalar, turli – tuman qqo'g'irchoqlar, xayvon va qushlarni shakllari, bola qo'li etishi mumkin joylarga o'yinchoqlarni osib qo'yiladi va ularni ushlatiladi. Shuningdek yumalatib o'ynash uchun to'p va sharlar, chelakcha, o'yinchoqlarni joylash uchun maxsus yashikcha, puflab tayyorlanadigan o'yinchoqlar, emaklash uchun yordam beradigan o'yinchoqlar tavsiya etiladi.

- 9-12 oylik bolalar uchun – xalqali minorachalar, ikki qavatli matryoshkalar, rangli kubiklar, ajratib olinadigan va bir-birining ichiga solib qo'yiladigan, buyumlar solingan tovoqchalar, qo'lga taqib olinadigan bilakuzukchalar, siqqanda ovoz chiqaradigan rezinka o'yinchoqlar, plastmassali va yog'ochli bolg'achalar, suv quyish uchun mo'ljallangan suv chelakchasi, suv purkagich, teplovoz va boshqa o'yinchoqlardan foydalanish mumkin.

Tarbiyachilar bolalar o'yiniga rahbarlik qilishda quyidagilarga rioya qilishlari lozim:

1. O'yin bilan mehnat o'rtasida to'g'ri munosabat o'rnatish;
2. O'yinda bolalarning bo'lajak mehnat ahliga xos bo'lgan jismoniy va ruhiy sifatlarini tarbiyalash. O'yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalash tizimida, maktabgacha ta'lim muassasasining ta'lim - tarbiya ishida axloqiy, mehnat va estetik tomondan tarbiyalashda katta o'rin tutadi.

O'yinda yosh organizmga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qondiriladi. Hayotiy faollik yaratiladi. Birdamlik, tetiklik, quvnolik tarbiyalanadi. O'yin ta'lim va mashg'ulotlar bilan kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, juda katta ta'limiy - tarbiyaviy ahamiyatga ega. O'yinda aks ettirilgan narsani bilib olishga qizikish uyg'onadi, ko'pincha o'yin bolalarga yangi bilim berish va ularning fikrlarini, bilim doirasini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Bolalar o'yinlari o'zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ular o'z mazmuni va tashkil etqilishiga ko'ra, qo'llaniladigan buyumlarning turlariga ko'ra kelib chiqishiga ko'ra turlichadir. Bularning barchasi bolalar o'yinlarini turkumlashtirishni

favqulodda noziklashtiradi, biroq o'yinlarga rahbarlik qilish uchun ularni albatta guruhlash zarur.

Pedagogikada o'yinlarni ikki katta guruhga bo'lish juda keng taralgan. Ijodiy va qoidali o'yinlar. Ijodiy o'yinlarning mazmunini bolalarning o'zlari o'ylab topadilar va ularda o'z tassurotlarini, borli haidagi tushunchalarini hamda unga munosabatlarini aks ettiradilar.

Qoidali o'yinlar esa kattalar tomonidan yaratiladi va bola hayotiga olib kiritiladi. Mazmuni qoidalarning murakkabligiga qarab, ular turli yoshdagi bolalarga mo'ljallangan bo'ladi. Tayyor qoidali o'yinlarning katta guruhini xal o'yinlari tashkil etadi, ularning ko'plari avloddan-avlodga o'tib, bizgacha etib kelgan.

O'yinlarning har ikkala guruhi ham o'zining xilma-xil ko'rinishlariga ega. Ijodiy o'yinlar guruhini syujetli rolli o'yinlar tashkil etadi. O'yinlar o'z mazmuni va qoidalari, tarbiyaviy ta'siriga ko'ra shartli ravishda didaktik o'yinlar va musiqiy o'yinlarga bo'linadi. Didaktik o'yinlarda avvalo bolalarning aqliy faoliyati rivojlanadi, ularning bilimlari chuqurlashadi va kengayadi, harakatli o'yinlarda bolalarning turli harakatlari takomillashadi, hamda musiqali o'yinlarda musiqiy kobiliyatlar rivojlanadi. Demak, har bir o'yinning o'ziga xos sifatlari mavjud, biroq ular qator umumiy xususiyatlarga ham ega.

O'yin - bu bola faoliyatining turi bo'lib, masadning mavjudligi, rejali harakatlar, natijaning o'ziga xosligidadir. N.K.Krupskaya bolalar rivojlanishiga qarab, uning o'yinda o'z oldiga qo'yadigan masadining tabiati ham o'zgarishini bolalar taqlidi harakatlardan asta-sekin o'ylangan asosli maqsadlarga o'tishlarini ko'rsatib o'tgan edi. Bola o'yindagi maqsadiga erishishi uchun o'ziga sheriklar tanlaydi, zarur o'yinchoqlarni topadi, o'yin davomida muayyan harakat va qiliqlar qiladi. Boshqa faoliyat turlarida bo'lgani singari o'yin jarayoniga bolaning butun shaxsiyati, uning psixik bilish jarayonlari, irodasi, xissiyoti va ta'sirchanligi, ehtiyoj va qiziqishlari jalb etiladi, o'yinda bola faol harakat qiladi, gapiradi, o'z bilimlarini qo'llaydi.

O'yin o'ziga xos xususiyatga ega, o'yin bolaning shaxsiy tashabbusiga ko'ra vujudga keladigan, o'zining faol ijodiy yo'sindagi, yuksak ta'sirchanlik ruhi bilan ajralib turadigan erkin va mustail faoliyatdir. O'yin ertalab nonushtagacha (15-20 daqiqa) boshlanadi va nonushtadan keyin, mashg'ulotlar o'rtasida, ochik havoda, uyqudan keyin o'tkaziladi. Ertalab rolli o'yinlar, qurish-yasash, harakatli o'yinlarni tashkil qilish tavsiya etiladi, Mashg'ulot o'rtasida harakatli, qoidali o'yinlar ham o'tkazib turiladi.

Ochiq havodagi o'yinlarga esa yugurish, otish, sirpanish bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar, qoidali o'yinlar (ok terakmi ko'k terak, ona bo'ri kabilar kiradi).

Kunduzgi uyqudan keyingi o'yinlarga qurilish o'yinlari, ertak bo'yicha sahnalashtiriladigan, roli o'yinlar, didaktik o'yinlar kiradi.

Syujetli - rolli o'yin o'z xususiyatiga ko'ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Tevarak-atrofdagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o'yin mazmuni uchun manba bo'lib xizmat qiladi. O'yinning syujeti - o'z harakati, munosabatlari bilan bog'langan voqea-xodisalar va ularning harakatlari xursandchilik hissini paydo qiladi, shuning uchun bolani qiziqtirib, unda yaxshi kayfiyat uyg'otadi.

Nazorat uchun savollar

1. Qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lishi xaqida tushunchalar bering?
2. Xindistondagi soya teatrlarida nimalar sosdir bo'lgan?
3. Teatrning rivojlanishi?
4. Stol teatri, simli, trostli teatrlar?
5. Teatr o'yinlarining bola tarbiyasidagi roli?
6. Stol teatrini yasash va syujetlarni ijro etish?
7. O'yinchoq teatri bola tarbiyasida?
8. Sahna asarlarini qo'yishda tarbiyachiga qoyilgan talablar?

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yisha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. Yusupova P. Maktabgasha tarbiya pedagogikasi. T.: O'qituvshi. 1993.
4. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgasha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006.
5. Sodiqova Sh.A. Maktabgasha pedagogika. T.: Tafakkur bo'stoni 2013